



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Bayzakova Maftuna Adulqosim qizi
va Xazratqulova Munira, A. Qodiriy nomli JDPU 2-kurs doktoranti

Annotatsiya:

Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmasini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish masalalari ko'rib chiqiladi. . Yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkonini beradigan o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish, bola shaxsini shakllantirishga oid falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik bilimlarni uyg'unlashtirish zaruriyati kuchaymoqda.

Kalit so'zlar: bo'lajak Tarbiyachilar, akmeologiya, ta'lim, loyiha, ko'nikma, rivojlanish , zamonaviy tizim, maktabgacha ta'lim,kasb.

Аннотация:

В статье рассматриваются вопросы анализа процесса формирования умений проектирования образовательного процесса у будущих педагогов на основе акмеологического подхода. . Возрастает необходимость в совершенствовании методов и методик обучения, позволяющих добиться высокого качества и эффективности, гармонизации философских, социологических и психолого-педагогических знаний, связанных с формированием личности ребенка.

Ключевые слова: будущие педагоги, акмеология, образование, проект, умения, развитие, современная система, дошкольное образование, профессия.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Abstract:

The article considers the issues of analyzing the process of developing the skills of designing the educational process in future educators based on the acmeological approach. . The need to improve teaching methods and methods that allow achieving high quality and efficiency, and to harmonize philosophical, sociological, psychological, and pedagogical knowledge related to the formation of the child's personality is increasing.

Keywords: future educators, acmeology, education, project, skills, development, modern system, preschool education, profession

Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuvga tayangan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli echish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'z kasbiy faoliyatlarini ongli tarzda rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonini faoliyat ko'rsatish tartibidan ta'lim oluvchilarni kasbiy jihatdan rivojlantirish funktsiyasini bajarishga o'tkazish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni barcha sub'ektlarining bilish mayllarini faollashtirish;
- kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallashni oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining ichki ehtiyojiga aylantirish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini ob'ektiv borliqni ijodiy tarzda qayta his etishga o'rgatish, shu asosda ularning estetik didi va kreativ faoliyatini rivojlantirish kabilar.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida akmeologik yondashuvni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun ta'lim jarayoni sub'ektlaridan barcha jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqish layoqatiga ega bo'lish talab etiladi. Muammolarni ko'ra olish, ularni echish yo'llarini izlash, harakat natijalarini tahlil qilish layoqatiga ega bo'lish oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlari uchun muhim



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

hisoblanadi. Buning uchun ta'lim jarayoni sub'ektlari o'zlari erishgan nuqtada to'xtab qolmasliklari, muntazam rivojlanish sari intilishlari lozim. Shunga ko'ra, akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini muntazam rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy etukliklari, shaxsiy-kasbiy jihatdan o'z mavqelarini aniqlashga tayyorliklarini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda zamonaviy oliy pedagogik ta'lim muhitida o'quv jarayoni akmeologik yondashuv bilan boyitilishi lozim. Bu jarayonda bo'lajak mutaxassis rivojlanish, takomillashish imkoniyatiga ega bo'ladi, kasbiy faoliyat cho'qqisi sari intiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, malakali pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish uchun, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta'lim mazmunini akmeologik yondashuv asosida modernizatsiyalash parametrlarini aniqlash hamda shu asosda o'quv-metodik majmualar mazmunini qayta qurish, bunda yangi pedagogik yondashuvlar, yo'nalishlar, paradigmalarning o'quv-metodik majmualar mazmunida keng o'rin olishiga erishish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bunda oliy pedagogik ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar shaxsiga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Chunki pedagogik faoliyatni akmeologik yondashuv asosida shakllantirish uchun, birinchi navbatda, mutaxassislarning pedagogik tafakkuri va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Pedagogik bilimlarni o'zlashtirish uchun, dastlab, mazkur maqsadga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni, shakllari, metodlarini yangilash talab etiladi. Shu asosda o'quv jarayonini muvaffaqiyatli tarzda mustaqil bilim olish jarayoniga aylantirish, bunda akmeologik yondashuvning ustuvor o'rin egallashini ta'minlash mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilar akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishlari uchun ularni oliy pedagogik ta'lim jarayonidayoq mazkur faoliyatga tayyorlash talab qilinmoqda. Tarbiyachilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishlari uchun, avvalombor, bu jarayonni maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun ular shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi, vazifalari, bu jarayonda o'quv vositalarining mazmuni va xarakterini yaxshi bilishlari lozim. Bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv jarayonini samarali loyihalash tajribasini



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

o'zlashtirish uchun bo'lajak tarbiyachilar dastlab uning mezonlarini yaxshi bilishlari kerak.

Bugungi kunda yangicha kasbiy mahoratga ega bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash vazifasini hal etish zaruriyati tug'ilmoqda. Chunki tarbiyachi o'z pedagogik faoliyati jarayonida har bir bolaga alohida shaxs sifatida yondashib uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy rivojlanishini ta'minlay olishi kerak. Buning uchun u ta'lim-tarbiya jarayonini sinfdagi har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtirish va tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini yangi bilimlarni egallashga yo'naltirish, ularda tashabbuskorlikni hosil qilish, pedagogik tafakkurni rivojlantirish, o'quv hamda ilmiy-pedagogik faoliyatni o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari, mashg'ulot turlarini loyihalash ehtiyoji kuchaymoqda.

Taqdim etiladigan yangi bilimlar oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'z pedagogik faoliyatlarini mustaqil boshqarish, uni mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu imkoniyatlardan qulay tarzda foydalanish oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlariga taqdim etiladigan bilimlar ko'lamini kengaytirishni taqozo qiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarida pedagogikaning ko'plab xususiy tarmoqlari va sohalari haqida bilimlarni hosil qilish, ularning ilmiy dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish istiqboldagi pedagogik faoliyat mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirishning quyidagi yo'llarini taklif qilish mumkin:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida muammoli o'qitish va interfaol ta'lim metodlaridan keng foydalanish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonida individual, guruhli va jamoaviy o'qitish shakllarini samarali qo'llash;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini ilmiy tadqiqot va loyihachilik faoliyatining turli shakllariga jalb etish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini turli tanlovlar, olimpiadalar, tanlov asosidagi grantlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash kabilar.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarida akmeologik yondashuv asosida pedagogik tafakkurni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda quyidagilarni hisobga olish talab etiladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining real o'quv imkoniyatlarini aniqlash maqsadida akmeologik xarakterdagi tashxislash tadbirlarini o'tkazish, shu asosda ularning o'quv imkoniyatlari, kasbiy mayllari, qiziqishlari, qadriyatlari, istiqboldagi pedagogik faoliyatlarida qo'llaniladigan bilimlar ko'lamini aniqlash;
- o'quv jarayonida pedagogik tafakkurning samarali rivojlanishiga imkon beradigan qulay pedagogik vositalarni tanlash;
- o'qitishning interfaol metodlari va tashkiliy shakllariga keng o'rin ajratish asosida oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining shaxsiy-kasbiy mavqelarini mustahkamlash uchun qulay o'quv vaziyatlarini tashkil etishni tazarda tutish;
- pedagogik tafakkurning rivojlanishida oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining topshiriqlarning turli shakllari, manbalar hamda ma'ruza matnlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar shular jumlasidandir.

Akmeologik mavqe pedagoglarning integrallashgan sifatlari ko'rsatkichi bo'lib, o'z-o'zini takomillashtirishining mahsuli hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'limning yangilangan mazmunigina tarbiyachining akmeologik modelini yaratishga xizmat qila oladi. Bu esa, o'z navbatida, oliy pedagogik ta'lim sifatini ta'minlash imkonini beradigan yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik tafakkurning akmeologik yo'sinda rivojlanishi oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining mutaxassis sifatida yaxlit tarzda kasbiy yuksalishini anglatadi. Bu jarayonda tarbiyachi shaxsiy, ma'naviy, kasbiy jihatdan mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiyachida kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashning rivojlanishi pedagogik faoliyat refleksiysi va kasbiy xulq-atvorning takomillashuviga olib keladi. Bularning barchasi bevosita oliy pedagogik ta'limning akmeologik yondashuvga tayangan yangi mazmuniga asoslangan modelini joriy etish bilan bog'liq.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Pedagogik-psixologik jihatdan dinamik tarzda o'zgarib boruvchi kasbiy rivojlanish jarayonining tavsifi bo'lajak tarbiyachilarning ruhiy, psixofiziologik taraqqiyotidagi bo'shliqlarni aniqlash, shu asosda ularga pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi orqali ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanish tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

SHaxsga yo'naltirilgan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash shunday jarayonki, unda guruhdagi talabalar hamda professor-tarbiyachilarning o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatlarida ularning har ikkalasi teng ishtirok etadilar. Bu tizimda pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifasi professor-tarbiyachilar hamda talabalarning o'zaro hamkorlikka asoslangan kasbiy rivojlanish jarayonini amalga oshirishdan iborat. Bu talabalar va professor-tarbiyachilarning birgalikda qarorlar qabul qilishlari, qo'yilgan muammolarga echim izlashlari, o'zaro o'xshash vaziyatlarni bir xilda baholay olishlari, kasbiy rivojlanish jarayonining natijaviyligini ta'minlashlari, vujudga kelgan qarama-qarshiliklarni birgalikda bartaraf etishlari, professor-tarbiyachilar hamda talabalar bir-birlarining faoliyatlarini to'g'ri baholay olishlari kabilarda namoyon bo'ladi.

2. Akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonda professor-tarbiyachilar talabalarni oldindan loyihalashtirilgan model asosida kasbiy rivojlantirishga erishishlari lozim. Bunda talabalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishga oid kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish talab etiladi. Bu o'rinda bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifasi professor-tarbiyachilar va talabalarni o'zaro muvofiq keladigan tashxislash metodlari bilan qurollantirishdan iborat.

3. Talabalar o'zlarining kasbiy-shaxsiy qiziqishlari doirasida muayyan bir pedagogik hodisani chuqur o'rganishlari uchun mustaqil bilim olishlari, pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarni muntazam o'qib o'rganishlarini zarur. Bunda kasbiy rivojlanish jarayonida talabalarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifalaridan biri – ularga mustaqil bilim olish



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

ko'nikma va malakalarini, professor-tarbiyachilarga esa bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarga ko'maklashish kompetentsiyalarini shakllantirishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni mustaqil bilim olishga undash tajribasi keng ko'lamda qo'llaniladi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimini ilmiy metodik hamda texnologik jihatdan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, talabalarning mustaqil o'qib o'rganishlari uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratilgan. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik yordamning muhim vazifalaridan yana biri – talabalarni kasbiy rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida ularda umumiy hamda xususiy xarakterdagi kasbiy kompetentsiyalarni hosil qilishdan iborat.

Akmeologiyaning muhim vazifasi inson rivojlanishining turli yosh davrlarida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon eta olish qobiliyatini aniqlashdan iborat.

Akmeologik yondashuvga asoslangan oliy pedagogik ta'limning markazida talaba shaxsi qo'yiladi. Bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilar kasbiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo'ladilar. Professor-tarbiyachilar talabalar bilan dialogga asoslangan muloqot jarayonida ularda o'zlariga nisbatan ishonch hosil qilib, o'z fikrlarini dadillik bilan bayon etishlariga sharoit yaratadilar. Bu esa talabalarga o'zlashtirilayotgan kasbiy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash va o'quv materiallarini jadal o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada, talabalarda kasbiy rivojlanishga intilish, dadillik, qiziquvchanlik sifatlari tarkib topadi.

Talabalarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim faoliyatli yondashuv kontseptsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat bo'lajak tarbiyachilar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo'ymoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv kontseptsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o'z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat'iy yondashuv asosida hal qila oladigan, kasbiy kompetentsiyalarni chuqur egallagan mutaxassislar tayyorlashni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo'ladigan o'quv dasturlari akmeologik yondashuv printsipli asosida yaratilishi lozim.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Ta'lim jarayonini bola shaxsiga yo'naltirish muammosi ko'p qirrali bo'lib, bu sohada turlicha yondashuvlar va nuqtai nazarlar mavjudligi kuzatiladi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish asosida uni shaxsga yo'naltirish kontseptsiyasini vujudga keltirdi. Uzluksiz ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish vazifasi yanada dolzarblik kasb etib, bugungi kunda uni ta'lim oluvchilar shaxsiga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachilarni mazkur faoliyatga tayyorlash talab etiladi.

Ma'lumki, akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash tarbiyachining bolaga yuqori darajadagi insoniy munosabatda bo'lishini talab qiladi. Buning uchun tarbiyachilar ajdodlarimizning insonparvarlikka asoslangan o'qitish tizimini tashkil etishga oid ko'p asrlik tajribalarini o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Chunki akmeologik yondashuv asosidagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z tarkibida insonparvarlik, demokratiya va har bir shaxsga nisbatan oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish g'oyasini mujassamlashtiradi. Bunday qarashlar dastlab ajdodlarimizning ustoz-shogird haqidagi qarashlarida o'z ifodasini topganligini bo'lajak tarbiyachilar ongiga etkazish talab etiladi. Bu g'oyalar o'tmishda Arastu, Suqrot, Platon, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, YUsof Xos Hojib, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, SHayx Xovan Tohur, Xo'ja Ahror Valiy, SHayx Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ta'lim jarayonida bola shaxsiga insonparvar munosabatda bo'lishning zamonaviy talqini J.G'.Yo'ldoshev [121], R.G'.Safarova [253], S.Nishonova [209], B.Adizov [263], SH.Qurbanov, E.Seytxalilov [156], F.YUzlikaev [300], N.A.Alekseev [25], YU.V.SHaronin [291], E.V.Bondarevskaya [67], I.A.Kolesnikova [137], V.V.Serikov [266], I.S.YAkimanskaya [305] kabi olimlarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan, insonparvar va demokratik printsip asosida loyihalashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etishga bo'lajak pedagoglarni tayyorlash oliy ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani o'zida ifodalaydi. SHu bilan bir qatorda, bolalarning o'z-o'zlarini rivojlantirishlari, fan-texnika yutuqlarini egallashga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlarini ta'minlash uchun tarbiyachilar



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

ularni o'qitish jarayonini akmeologik yondashuv asosida loyihalashtirishlari va tashkil etishlari talab qilinmoqda. O'quv jarayonini tashkil etishda insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashuv mazkur jarayonning asosiy vazifasi bolada muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat ekanligini inkor etmaydi, balki tarbiyachidan ta'lim jarayonining vazifalarini kengaytirish va boyitishni talab qiladi. Bu jarayonda tarbiyachining ta'lim-tarbiya birligiga erishishi ham muhim ahamiyatga ega. CHunki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tarbiyachidan mamlakatimizning ertangi kuni bo'lgan intellektual va ma'naviy yuksak salohiyatli barkamol avlodni tarbiyalashni talab etadi.

Ma'lumki, bolaning reproduktiv faoliyatiga asoslangan an'anaviy o'qitish jarayonining maqsadlari ma'lum darajada cheklangan bo'lib, bu jarayonda bolalar muayyan o'quv faniga oid bilimlarni o'zlashtirish, ularni amaliy mashqlar yordamida mustahkamlash bilan shug'ullanar edilar. Tarbiyachi esa dastur va darsliklarda belgilab berilgan bilimlarni bolalarga tayyor holda uzatish bilan mashg'ul edi. Mazkur tizim tarbiyachining o'quv jarayonini loyihalashtirish imkoniyatini cheklab qo'yar ediki, bolalar bunday ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilish, rang-barang faoliyat turlarini egallash, ijodiy faollik ko'rsatish kabi imkoniyatlardan mahrum edilar. An'anaviy o'qitish jarayonida bola ham, tarbiyachi ham qat'iy tartib, yuqoridan belgilab berilgan reja asosida bir tomonlama faoliyat ko'rsatishga majbur edi. Mazkur faoliyatning mazmuni tarbiyachining yakka hokimlik asosida bolalarga bilimlarni uzatishidan iborat bo'lsa, bolalar ushbu jarayonda nazariy bilimlarni egallab, muayyan topshiriqlarni bajarish bilan shug'ullanar edilar. Darhaqiqat, bolalarni mustaqil, ijodiy fikrlashga undash uchun dastlab tarbiyachining o'zi ijodkor bo'lishi lozim.

Kuzatishlarimiz ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilar maktab hayotidan uzoqlashgan holda tahsil olmoqdalar. Ular ba'zi hollarda maktabning o'quv rejasi, o'quv dasturlari mazmunidan bexabar qolmoqdalar. Ko'pchilik talabalarning o'z o'quv faoliyatlari davomida maktab darsliklarini mutlaqo tahlil qilmaganliklari, hatto ko'rmaganliklari ham oydinlashdi. SHuning uchun ham ular o'quv predmetining mazmuni, o'qitishdan kutilayotgan oxirgi natija, turli parametrlar bo'yicha darsning davomiyligini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatish zarurligini to'la



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

anglab etmaydilar. Natijada, yosh tarbiyachilar ta'lim amaliyotida turli tipdagi nazariy jihatdan asoslanmagan, pedagogik amaliyotda o'zini oqlamagan samarasiz texnologiyalar bilan vaqtni zoe ketkazadilar. Kutilgan samarani bera olmaydigan texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash bolalarning intellektual rivojlanishlari, bilimdonlik darajalari, mustaqil fikr bayon qilish ko'nikmalarini egallashlari yo'lidagi sa'y-harakatlarga putur etkazadi. Natijada, bola uchun o'qish, o'rganish jarayoni qiziqarli mashg'ulotga emas, ortiqcha yukka aylanadi. YOsh tarbiyachilar bilan tashkil etilgan suhbatlar natijasida shu narsa aniqlandiki, ular o'quv jarayonini mustaqil loyihalash ko'nikmasiga etarlicha ega emasliklar, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini ham to'la o'zlashtirmaganlar. Kuzatishlarimiz, bitiruvchi talabalar va yosh mutaxassislar orasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim haqidagi fikrlarning o'zaro muvofiqligi, nuqtai nazarlar birligi ham talab darajasida shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa yosh tarbiyachi ta'lim muassasasiga kelganidan so'ng uning bola shaxsidan uzoqlashishi, ta'lim-tarbiya jarayonini mavjud pedagogik talablar asosida loyihalashtira olmasligiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bola shaxsi rivojlanadi, unda ijobiy-psixologik o'zgarishlar vujudga keladi, o'zini ko'rsatish, ijodiy fikrlashga ishtiyoq sezadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. R.A. Zokirova - *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: O'qituvchi, 2017 yil
2. N.N. Jo'raev - *Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020 yil.
3. Sh. Kurbanov - *Ta'limda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018 yil.
4. I. Musurmonov - *Pedagogika va psixologiya asoslari*. Toshkent: Sharq, 2019 yil
5. A.A. Ergashov - *Pedagogik innovatsiyalar asoslari*. Toshkent: O'qituvchi, 2021yil.
6. Tillayeva G.H- *Tafakkur Bo'stoni*. Toshkent -2014.